

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

SAIDRASULOV SHERZOD NORBOY O'G'LI

ELEKTRON HUKUMAT MUHITIDA O'ZBEK TILIDAGI
FUQAROLAR MUROJAATLARINI FORMALLASHTIRISH
ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent -2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Saidrasulov Sherzod Norboy o'g'li
Elektron hukumat muhitida o'zbek tilidagi fuqarolar murojaatlarini
formallashtirish algoritmlari va dasturiy majmuasi 3

**ВОЗВРАТИТЕ КНИГУ НЕ ПОЗЖЕ
обозначенного здесь срока**

ений граждан
..... 21

A
521

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI


SAIDRASULOV SHERZOD NORBOY O'G'LI

ELEKTRON HUKUMAT MUHITIDA O'ZBEK TILIDAGI FUQAROLAR
MUROJAATLARINI FORMALLASHTIRISH ALGORITMLARI
VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent -2023



Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T.3213 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Nishanov Axram Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Muxamedieva Dilnoza Tulkunovna
texnika fanlari doktori, professor

Eshankulov Hamza Ilxomovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 Ilmiy kengashning 2023-yil «17» mart soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70, e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (270 raqam bilan ro'yxatga olingan.). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «01» mart da tarqatildi.
(2023-yil «10» fevral dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi.)



M.M.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlar doktori, professor

N.O.Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlar doktori, dotsent

X.N.Zaynidinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy
seminar raisi, texnika fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga hamohang mamlakatimizda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan barcha sohalarda keng foydalanish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

AKT infratuzilmasi, elektron xizmatlar va inson kapitali omillarini inobatga olgan holda «keyingi 20 yildan buyon BMT tomonidan elektron hukumat tizimining rivojlanish indeksi yuritilib, reytingda Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Daniya, Norvegiya, AQSH, Kanada, Shvetsiya, Avstraliya, Singapur va Niderlandiya kabi davlatlar yetakchilik qilishmoqda»¹.

Elektron hukumat rivojlanganligida asosiy hamda natijaviy shart bu aholining ommaviy «elektron ishtiroki»dir. Ommaviy elektron ishtirok hajmi va sifatini oshirish uchun albatta elektron hukumat doirasida xizmatlarni kengaytirish, aholining barcha qatlamlari uchun turli daraja va doiradagi muammo, ehtiyoj va «murojaat»larini davlat va nodavlat organlariga elektron shaklda yetkaza olishini ta'minlash zarur.

Jahonda elektron hukumat tizimini yanada takomillashtirish borasida yuzaga kelayotgan zamonaviy muammolarni ilmiy hal qilish, jumladan, bu yo'nalishda tobora ortib borayotgan katta hajmdagi turli axborotlarning oqimini maqbul boshqarish, intellektual tahlil qilish va integratsiyalash uchun matematik-dasturiy modellar va algoritmlar yaratish muhim vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga ayniqsa elektron hukumatda xizmat ko'rsatish jarayonini intellektualashtirish va aholining ommaviy elektron ishtirokini oshirish doirasida matematik asoslangan uslubiyat yaratish va amaliyotga joriy etish masalalarning ilmiy-amaliy tadqiqotlariga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Elektron hukumat to'g'risida»gi (2015) va «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi (2017) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni va «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida namunaviy nizomni tasdiqlash haqida» 2018-yil 5-yanvardagi 7-son va «Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida» 2018-yil 7-maydagi 341-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari

¹<https://publicadministration.un.org> (E-Government Development Index)

rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Elektron hukumatni doimiy takomillashtirish, iste‘molchilarning axborot va xizmatga bo‘lgan ehtiyojini qanoatlantirish, sifatni oshirish, elektron hukumatda samarali elektron ishtirokni oshirish omillari va modellari, tabiiy tildagi matnli hujjatlarga ishlov berish, intellektual tahlil qilish, tasniflash, matnli hujjatlardan kalit so‘zlarni ajratib olishning matematik va dasturiy ta‘minoti, usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va rivojlantirish borasidagi ixtisoslashtirilgan ilmiy muassasalarda ko‘plab olimlar ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishmoqda.

Jumladan, elektron hukumat tizimi, unga ta‘sir qiluvchi omillar, tizim tatbiqi va tahlillari bo‘yicha B.Wirtz, T.Kvasnisova, Z.V.Arkipova, G.V.Bestolkova, G.O.Barbakov, N.V.Beryoza, S.V.Ponomarev, A.K.Skopintsev, A.V.Sadilova, elektron hukumatda samarali elektron ishtirokni oshirish omillari va modellari bo‘yicha Smith & Dalakiouridou, Fedotova, Teixeira, Alvelos, D.Bennet, Revyakin S.A., Y.Panopoulou, A.Makintosh shug‘ullanganlar. Tabiiy tildagi matnli hujjatlarni qayta ishlash, intellektual tahlil qilish, tasniflash masalalari bo‘yicha Kozlov, Batura, Fabritsio Sebastian, Uilyam B. Cavnar, Vandana Korde, Zakaria Elberichi, Ron Bekkerman, matnli hujjatlardan kalit so‘zlarni ajratib olish bo‘yicha masalalari Stojok, Moskvitina, Grineva, Grinev, Rose, Astraxantsev, Zaxarov, Xoxlova, Lukashevich, Logachev muallifligidagi ishlarda yoritilgan. Shuningdek, respublikamizda M.M.Kamilov, T.F.Bekmuratov, SH.X.Fozilov, A.X.Nishanov, N.S.Mamatov, O.J.Babomuratov, E.S.Babadjanov, L.B.Boboev kabi olim va tadqiqotchilar bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlarga o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Elektron hukumat muhitida murojaatlar portali orqali yo‘llangan tabiiy o‘zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatik formallashtirish va predmet sohalar bo‘yicha tasniflash imkonini beruvchi usul va algoritmlarni yaratish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida №22/19-F «Milliy elektron hukumat muhiti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning «iGov – maslahat-muhokama-monitoring tizimi»ni ishlab chiqish va uning tatbiqi» (2019-2020) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Elektron hukumat muhitida murojaatlar portali orqali yo‘llangan tabiiy o‘zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatik formallashtirish va predmet sohalar bo‘yicha tasniflash masalasining algoritmik va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektron hukumat muhitida jismoniy va yuridik shaxslarning elektron ishtiroki va murojaatlarni tahlil qilish;

tabiiy o‘zbek tilidagi matnli murojaatlarni tasniflash masalasini formal qo‘yish va murojaatlarni qayta ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqish;

o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatlashgan holda predmet sohalarga ajratish jarayonini loyihalashtirish, qayta ishlashning o'ziga xos infrastrukturasi ishlab chiqish;

o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni formallashtirish va formal murojaatlar bazasidan murojaatni qidirish algoritmini ishlab chiqish;

matnli ma'lumotlarni qayta ishlash uchun o'zbek tiliga xos ma'lumotlar va bilimlar bazasi, ekspert va dinamik tanlanmalar, ranjirlash funksiyalari hamda algoritmik va dasturiy majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida elektron hukumat muhitida murojaatlar bilan ishlashga qo'yilgan talablar, murojaatlar portali hamda u orqali yo'llangan tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlar bazasi olingan.

Tadqiqotning predmeti elektron hukumat muhitida matnli murojaatlarni formallashtirish va avtomatik predmet sohalarga ajratish usul va algoritmlari hamda ularning dasturiy majmuasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan barcha dasturiy vositalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, dasturlash texnologiyalari, timsollarni tasniflash, tizimli tahlil va ma'lumotlarning intellektual tahlili, ma'lumotlar va bilimlar bazasini shakllantirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy o'zbek tilidagi matnlarni avtomatik qayta ishlovchi, yagona tizimga integratsiya qiluvchi lingvistik ma'lumotlar bazasi loyihalashtirilgan va yaratilgan;

tabiiy o'zbek tilidagi fuqarolarning matnli murojaatlarini tasniflash uchun kengaytirilgan qatlamlarga ajratish algoritmi, mezonli tasniflash tanlanmalari va ranjirlash funksiyalari ishlab chiqilgan;

matnlarni formallashtirish usuli va formal murojaatlar bazasini kombinatsiyali qidirish algoritmi ishlab chiqilgan;

fuqarolar murojaatlarini tasniflash va formallashtirish algoritmlari asosida elektron hukumat tizimlari uchun dasturiy funksional modullarining tuzilmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

elektron hukumat muhitida jismoniy va yuridik shaxslarning elektron ishtiroki va murojaatlarni ta'minlovchi, tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni tasniflovchi, murojaatlarni formallashtiruvchi va ularni qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash tamoyillariga mos xizmat ko'rsatuvchi uslubiyatlar ishlab chiqilganligi;

o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatik predmet sohalarga ajratish jarayonini loyihalashtirishga, ma'lumotlarni qayta ishlashning o'ziga xos infrastrukturasi inobatga olgan dasturiy majmuani ishlab chiqilishi;

o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni formallashtirish va formal murojaatlar bazasidan murojaatni qidirishning algoritmik ta'minotini ishlab chiqilishi;

matnli ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida o'zbek tilining o'ziga xos ma'lumotlar bazasi, ekspert va dinamik tanlanmalar, ranjirlash funksiyalari hamda algoritmik ta'minotlari asosida fuqarolar murojaatlarini tasniflash va formallashtirish algoritmlari orqali elektron hukumat tizimlari uchun dasturiy funksional modullarining tuzilmasi ishlab chiqilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan muammoning chuqur tahlili, matematik modellashirishning korrektiligi, dasturlash texnologiyalari va algoritmlashtirish nazariyasi hamda tizimli va intellektual tahlil qilish usullarining to'g'ri qo'llanishi, murojaatlar bazasidan murojaatlarni ko'p parametrlil qidirish va tabiiy o'zbek tilida ifoda etilgan ma'lumotlarni formallashtirishda yangicha algoritmik yondashuv qo'llanilishi, shuningdek elektron xizmat ko'rsatish borasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalar va veb platformalarni ishlab chiqish talablariga muvofiqligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elektron hukumat muhitida tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni formallashtirish va avtomatik predmet sohalariga ajratish jarayonini loyihalashtirish, qayta ishlashning o'ziga xos infrastrukturasi yaratish, sinflashtirish usul va algoritmlarini ishlab chiqish, tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni formallashtirish va formal murojaatlar bazasidan murojaatni qidirish algoritmini ishlab chiqish, matnli ma'lumotlarni qayta ishlashda o'zbek tilining o'ziga xos ma'lumotlar bazasi, ekspert va dinamik tanlanmalar, ranjirlash funksiyalari hamda algoritmik ta'minotini ishlab chiqilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati elektron hukumat muhitida jismoniy va yuridik shaxslarning elektron ishtiroki va murojaatlarni ta'minlovchi, tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni tasniflovchi, murojaatlarni formallashtiruvchi va ularni qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlari aniqlash tamoyillariga mos xizmat ko'rsatuvchi uslubiyatlar, tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatik predmet sohalarga ajratish jarayonini loyihalashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlashning o'ziga xos infrastrukturasi, o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni formallashtirish va formal murojaatlar bazasidan murojaatni qidirish, o'zbek tilining o'ziga xos ma'lumotlar bazasi, ekspert va dinamik tanlanmalar, ranjirlash uslubiyatlari hamda algoritmik ta'minotlari asosida tabiiy o'zbek tilidagi murojaat matnlarni formallashtirish orqali predmet sohasini aniqlash dasturiy majmuasi ishlab chiqilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron hukumat muhitida tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatik formallashtirish va predmet sohalari bo'yicha tasniflash masalasi uchun ishlab chiqilgan usul va algoritmlar bo'yicha olingan natijalar asosida:

Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot virtual qabulxonaning markaziy boshqaruv bo'limiga 2022-yilning aprel oyidan boshlab joriy etilgan bo'lib, 5 oy davomida kelib tushgan 450 mingga yaqin murojaatning 32% ni avtomatik sohalarga ajratish imkonini berdi. Ushbu natijalar murojaatlar turi va sonini qanchalik ortishi bilan bilimlar bazasi kengayishi hamda buning natijasida samaradorlik ko'rsatkichini ko'tarilishi ko'rsatadi (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022-yil 30-avgustdagi 33-8/5583-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot Elektron hukumat muhitida qo'llanilishi, ya'ni tegishli mutaxassislar tomonidan murojaatlarni avtomatik qayta ishlashlarida ularga oqilona qaror qabul qilishlari uchun ko'mak berish imkoniyati yaratilgan. Natijada, bu esa ish unumdorligi o'rtacha 20-30 % gacha

ortishiga erishildi. Dissertatsiya ishi natijasida yaratilgan dasturiy majmuadan O'zbekiston Respublikasi elektron hukumat axborot tizimlarida tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni avtomatik formallashtirish va predmet sohalar bo'yicha tasniflash masalalarida foydalanilishi ish samaradorligini oshishiga xizmat qiladi («UNICON.UZ» - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazining 2022-yil 22- avgustdagi 5-3/1465-son dalolatnomasi).

Dasturiy ta'minoti tegishli soha yo'nalishi kesimidagi fuqarolar murojaatlari asosida shakllantirilgan o'quv tanlanmadan foydalangan holda statik termlar to'plamini shakllantirish, murojaatlarni formallashtirish va tasniflash ishlari amalga oshiradi hamda elektron hukumat muhitida qo'llanilishi, ya'ni tegishli mutaxassislar tomonidan murojaatlarni avtomatik qayta ishlashlarida ularga oqilona qaror qabul qilishlari uchun ko'mak berish imkoniyati yaratdi. Natijada, ish unumdorligi o'rtacha 20-30 % gacha ortishiga erishildi ("O'zbekiston pochta" AJning 2022-yil 18-avgustdagi dalolatnomasi).

Kelajakda mazkur dasturiy majmua Elektron hukumat muhitiga joriy etilsa fuqarolarning elektron murojaatlarining tegishi predmet sohalarini aniqlashda dasturiy vosita tomonidan moderatorlarning oqilona qaror qabul qilishlari ish unumdorligining 20-25% gacha ortishiga, ish hajmining esa 10-20% gacha kamayishiga erishiladi («Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi» davlat markazining 2022-yil 22-avgustdagi dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 10 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda 3 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomolari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan va tadqiqot obyektini va predmetini aniqlangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Elektron hukumat muhitida murojaatlarning tashkil etilganlik holati va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili» deb nomlangan birinchi bobi to'rtta paragrafdan iboratdir. Ushbu bob jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning ochiqligi va sifatini oshirishga qaratilgan. Birinchi

paragrafda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanish tahlillari, BMT tomonidan yuritilayotgan «elektron hukumat» tizimini rivojlanganlik tahlillari asosida davlatimizda elektron hukumat rivojlanganlik darajalarini ilg'or davlatlarga nisbatan tahlili, elektron hukumat rivojlanishi reytingi (EGDI) va undagi elektron ishtirok etish indeksleri (EPART) bo'yicha ilg'or davlatlar va MDH davlatlarining tahlillari, elektron hukumatda samarali elektron ishtirokni oshirish omillari va modellari keltirilgan. Xususan keyingi 14 yil davrda EGDI reytingi 109 dan 69 ga (+40), bunga mos elektron ishtirok ko'rsatkichi 0.0909 dan 0.7636 (+0,6727) ga o'sdi. Ikkinchi paragrafda fuqarolar murojaatlari bo'yicha tushunchalar va normativ-huquqiy hujjatlar keltirilgan. Uchinchi paragrafda elektron murojaatlarni tashkil qilish jarayoni va asosiy ko'rsatkichlar, «Murojaatlar» portalining funksional xususiyatlari, murojaatlar bilan ishlashni tashkil qilish yuzasidan xorijiy, jumladan MDH davlatlari tajribasi hamda «Murojaatlar» portalida murojaatlarni tasniflash jarayonini optimallashtirish yondashuvi keltirilgan. To'rtinchi paragrafda masalani qo'yilishi hamda birinchi bob bo'yicha xulosalar keltirilgan

Dissertatsiyaning «**Matnli murojaatlarni avtomatik qayta ishlash masalasi va uning tahlillari**» deb nomlangan ikkinchi bobda tabiiy tildagi matnli hujjatlar va murojaatlarni qayta ishlash borasidagi tadqiqot ishlari va algoritmlar tahlil qilindi hamda mavjud muammolar tasniflandi. Jumladan, matnli intellektual tahlil qilish algoritmlari sinflashtirilgan holda mohiyati ochib berildi. Matnli murojaatlarni qayta ishlashda kalit so'zlar muhim ahamiyat kasb etganligi sababli kalit so'zlarni ajratib olish usullari va algoritmlari alohida paragraf sifatida tadqiq etildi. Jumladan, kalit so'zlarni chiqarishning muammoli sohasi, ishlab chiqilgan usullar va ularni amalga oshiradigan algoritmlar to'g'risidagi nashrlarni tizimlashtirishga va istiqbolli tadqiqot yo'nalishlarini tanlash asoslangan (1-rasm).



1-rasm. Kalit so'zlarni ajratib olish usullarining tasnifi

Tabiiy tillar ko'p va ularning formal shakllanishi turli-tumanligi sababli odatda matnni qayta ishlovchi algoritmlar biror aniq tabiiy tilga nisbatan yaratiladi. Demak, mavjud ko'plab algoritmlar ko'proq ommalashgan tabiiy tillarga mos yaratilgan bo'lib, ularni o'zbek tiliga modifikatsisiz qo'llash natija bermaydi. Shuning uchun tabiiy

tilidagi matnlarni qayta ishlashga qaratilgan tahliliy bobning natijasi sifatida o'zbek tilidagi matnlarni formallashtirish uslubiyatlari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning «Tabiiy o'zbek tildagi murojaat matnlarni formallashtirish orqali predmet sohasini aniqlash algoritmi» deb nomlangan uchinchi bobida tabiiy o'zbek tilidagi matnli murojaatlarning predmet sohaslarini aniqlash uslubiyati va algoritmik ta'minoti tadqiq qilingan. Ishning dastlabki paragrafida o'zbek tilidagi matnli murojaatlarni tegishli predmet sohalarga ajratish masalasini yechish g'oyasi uchun asosiy vazifalar quyidagicha keltiriladi:

berilgan masala bo'yicha *termlar va qoidalar bazasi* yaratish;

Matnni tahlil qilish algoritmini ishlab chiqish. Mazkur algoritmda berilgan matnga dastlabki ishlov berish va qatlamlarga ajratish amalga oshiriladi. Jumladan, matnni tozalash; matnni gap va so'zlarga ajratish; ismlar, nomlanishlar va raqamlarni ajratish; qisqartmalarni kengaytirish; sintaksis va leksik tahlillar olib boriladi;

Matnni formal qolip asosida qidirish. Bunda kalit so'zlarga tayagan holda joriy murojaat matni mantiqiy matematik ko'rinishdagi formal qolipga tushiriladi. Natijada, bu formal matn oldindan mavjud bo'lgan formal murojaatlar bazasidan qidiriladi. Agar natijaga erishilsa, amaliyot to'xtatiladi, aks holda keying bosqichga o'tiladi;

Tasniflash usuli ishlab chiqish. Joriy qatlamlarga ajratish natijasida yarim formallashtirilgan matn ekspert va dinamik tanlanmalar to'plami bo'yicha predmet sohalari aniqlanadi va u foydalanuvchiga taqdim etiladi;

Natijaga erishilgan murojaat matnning predmet sohasini tasdiqlash va uni to'liq formallashtirish jarayoni. Algoritm natijasi to'g'ri bo'lsa, joriy formal matn formal murojaatlar bazasiga yoziladi.

Keltirilgan vazifalariga asosan murojaatni avtomatik tahlil qilishda dastlab zarur belgilashlar va ma'lumotlar bazalari yaratiladi. Bular quyidagicha:

T – o'zbek tilidagi termlar (iboralar) to'plami: $T = \{t_1, t_2, \dots, t_n\}$, n – mavjud termlar soni. Asosan mustaqil so'z turkumiga mansub so'zlar.

C – so'z turkumlari va ularning xususiyatlari to'plami.

R – raqamlar to'plami: $R = \{r_1, r_2, \dots, r_{rn}\}$, rn – mavjud raqamlar soni.

Q – qisqartmalar to'plami: $Q = \{q_1, q_2, \dots, q_{qn}\}$, qn – qisqartma soni. To'plam elementlari ko'p parametrlil: $q_i = \langle \bar{q}_i^1, \bar{q}_i^2, \bar{q}_i^3 \rangle$. Bu yerda \bar{q}_i^l – qisqartmaning turli shakllari, \bar{q}_i^2 – kengaytmasi, \bar{q}_i^3 – tegishli sohasi

G – yordamchi so'zlar (ko'makchi, so'z bog'lovchilari, yuklamalar) to'plami.

H – affiksalar to'plami $H = \{h_1^{o^1}, h_2^{o^2}, \dots, h_{hn}^{o^{hn}}\}$, bu yerda hn – soni, $h_i^{o^l}$ – affiks va uning old yoki orqa qo'shimcha ekanligi binar $o^l = \langle 0, 1 \rangle$ orqali aniqlanadi (0 bo'lsa, old qo'shimcha, 1 bo'lsa, 'zning orqa qo'shimcha).

Ishda T, R, H, G, Q , to'plamlar kalit so'zlar bazasi (KSB) deb yuritiladi.

TS – bir nechta iboralardan turivchi nomlanishlar (tashkilot, manzillar) to'plami: $TS = \{ts_1, ts_2, \dots, ts_{tsn}\}$, tsn – mavjud atamalar soni.

FS – ismlar kitobidan olingan shaxslarning ismlari to'plami: $FS = \{fs_1, fs_2, \dots, fs_{tsn}\}$, fsn – mavjud ismlar soni.

TN – termlar yaqinlik darajasining to‘plami: $TN = \{ \langle \bar{t}_i, \bar{t}_j \rangle, t_{f_{ij}} \}; \forall \bar{t}_i, \bar{t}_j \in T; t_{f_{ij}} \in (0,1]; i, j \leq n; i \neq j$, bu yerda $t_{f_{ij}}$ - berilgan \bar{t}_i va \bar{t}_j termlarning o‘zaro yaqinligi. Agar $t_{f_{ij}} = 1$ bajarilsa, u holda $\langle \bar{t}_i, \bar{t}_j \rangle$ termlar sinonim so‘zlar.

P – predmet sohalari (PS) to‘plami: $P = \{ p_1, p_2, \dots, p_{pn} \}$, np – sohalari soni.

PT – PSga tegishli termlar to‘plami: $PT = \{ pt_k = \langle p_i, t_{j_i} \rangle; i \leq pn; j_i \leq n; pt_k \leq n \times pn; \forall p_i \in P, t_{j_i} \in T$, bunda p_i -predmet soha, t_{j_i} -term indeksi.

PTN – PS bo‘yicha termlarning o‘zaro yaqinlik darajalari to‘plami: $PTN = \{ \langle \overline{pt}_i, \overline{pt}_j \rangle, pt_{f_{ij}} \}; \forall \overline{pt}_i, \overline{pt}_j \in PT; pt_{f_{ij}} \in (0,1]; i, j \leq n \times pn; i \neq j$. Agar $pt_{f_{ij}} = 1$ bo‘lsa, $\langle \overline{pt}_i, \overline{pt}_j \rangle$ soha termlar shartli sinonim so‘zlar hisoblanadi.


M – asl nusxadagi matnli murojaatlar to‘plami.

E – formallashtirilgan murojaatlar: $E^l = (E^{l,1}, \dots, E^{l,n_l})$. Bunda murojaat bir nechta segmentdan va segmentlar ikki parametrdan iborat: termlar va PS termlari. $E^{l,j} = (e_1^{l,j}, \dots, e_{i_{ij}}^{l,j}); e_{i_{ij}}^{l,j} = \{ (t_{k_1}^{l_{ij}}, \dots, t_{k_n}^{l_{ij}}), (pt_{h_1}^{l_{ij}}, \dots, pt_{h_n}^{l_{ij}}) \}$, $kn < N, nh < M$.

SL – termlarning sohalari kesimida ekspertlar tomonidan berilgan dastlabki statik termlar to‘plami: $SL = \{ sl_k, p_i, t_j, \gamma_{ij} \}; i \leq pn; j \leq n; k \leq n \times pn; \forall p_i \in P, t_j \in T; \gamma_{ij} \in [0, 1]$. Ushbu to‘plam elementlari qiymati oldindan mavjud va ma’lum sondagi murojaatlarni mashinali o‘qitish va ularga ekspertlar aniqlik kiritgan so‘ng olinadi hamda u o‘zgarimas etalon sifatida qabul qilinadi.

DL – sohalari kesimida dinamik termlar to‘plami: $DL = \{ dl_k, p_i, t_j, \delta_{ij} \}; i \leq pn; j \leq n; k \leq n \times pn; \forall p_i \in P, t_j \in T; \delta_{ij} \in [0, 1]$. Dinamik termlar to‘plami statik termlar to‘plamining nusxasi bo‘lib, o‘lcham va tuzilish jihatidan bir xil. Lekin, joriy murojaatlarni mashinali o‘qitishdan keyin DL dagi e_{ij} qiymati doimiy oshib boruvchi hisoblanadi.

Relyatsion modeliga asoslangan yuqoridagi ma’lumotlar bazasi ob’ektlarini o‘zaro o‘xshashlik jihati bo‘yicha bir nechta sinflarga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Ma’lumotlar bazasi ob’ektlarining sinflari

Matni avtomatik tahlil qilish algoritmi qoidalar asosida murojaat matni qatlamlarga ajratish vazifasi bajariladi. Mazkur algoritm KSBga tayangan holda berilgan qoidalar bo'yicha matn bir nechta qatlamlarga ajratadi. Formallashtirish jarayonidagi har bir qatlamni hosil qilishda berilgan matni tahlil qilishning o'ziga xos usullari yoki algoritmi ishlab chiqiladi. Bunda berilgan matnga 9 ta bosqichda ishlov berilib, 10 ta qatlam hosil qilinadi. Qatlamlarga ajratish jarayonida ma'lumot saqlash uchun W^v ikki o'lchamli vektor kiritilib, u har bir bosqichda vertikal va gorizontal o'lchamlarini o'zgartirib boradi. Algoritm qatlamlari quyidagilardan iborat: W^0 -noaniq simvollar; W^1 -nomlanishlar; W^2 -ismlar; W^3 -raqamlar; W^4 -yordamchi so'zlar; W^5 -affikslar; W^6 -qisqartmalar; W^7 -termlar; W^8 -termlarning o'xshashligi; W^9 -PS termlari; W^{10} -PS termlarining o'xshashligi.

Algoritm natijasida olingan oxirgi to'rtta qatlam asosida yarim formal matn hosil qilinadi va unda formal qolip bo'yicha qidirish usuli foydalaniladi. Ya'ni, $W^7 - W^{10}$ qatlamlar asosida formal qolip shakllantiriladi. Buning natijasida oldindan mavjud formallashtirish murojaatlar bazasidan qidirish amaliyoti bajariladi.

Oldindan mavjud E formal murojaatlar to'plamidagi formallashtirilgan murojaat ushbu shaklda tashkil qilingan: segmentlar ketma-ketligida $(e_{t_{ij}}^{i,j})$, segmentlar term va PS termlari ajratilgan kichik segmentlar juftligida (t, pt) , kichik segmentlarga esa termlarning asl nusxalari ketma-ketligi kiradi.

Agar joriy qaralayotgan murojaat matni formal qolipga tushirilgan deb aytiladi, agar, unda term va uning sinonimlari alohida segment hamda PS termlari va ularning yaqinliklari alohida segmentlarga ajratilgan bo'lsa. Shuningdek, hosil qilinadigan segment elementlari $(w_i^t \cup w_i^p$ va $w_i^q \cup w_i^{t0})$, term indekslaridan iborat bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$B = (b^1, b^2, \dots, b^r), b^d = \{(t_{k_1}^d, t_{k_2}^d, \dots, t_{k_d}^d), (p_{h_1}^d, p_{h_2}^d, \dots, h_{h_d}^d)\}.$$

Aksariyat hollarda b^d vektorning ikkinchi segmenti, ya'ni, $h_h^d = \emptyset$ bo'ladi. Chunki, $w_i^t \neq 0$ shartning bajarilishi doimo ushbu term PSga tegishli bo'lmaydi.

Umumiy holda qidirish masalasini ushbu ko'rinishda bayon qilish mumkin: E formallashtirilgan murojaatlar to'plamidan joriy formal qolipga tushirilgan B vektor elementlarini qidirish talab qilinadi. Qidirish algoritmini ishlab chiqishda quyidagicha shart va mezonlar oldindan belgilab olinadi:

qidirishda segmentlarning joylashuv pozitsiyalari hamda ushbu segmentga tegishli elementlar pozitsiyalari muhim emas;

qidirish segment juftligi mosligi bo'yicha olib boriladi;

qidirishda segmentlar va ulardagi elementlari soni belgilangan mezonni qanoatlantirsa, bu natija sifatida olinadi;

E to'plamning ixtiyoriy segmentning ikkinchi jufti mavjud va qidiriluvchi B vektorning segmentidagi ikkinchi jufti bor/yo'q bo'lsa, qidirish mumkin;

E to'plamning ixtiyoriy segmentining ikkinchi jufti mavjud bo'lmasa va qidiriluvchi B vektor segmentidagi ikkinchi juftlik bor bo'lsa, ikkinchi segment bo'yicha qidirilmaydi;

E to'plamdagi ixtiyoriy yozuv segmentlari sonidan qidiriluvchi B vektor segmentlari soni katta bo'lsa, mezon B vektor segmentlari soni bo'yicha olib boriladi,

aks holda, B vektor segmentlari soni E to'plam yozuvining segmentlari soniga nisbati bo'yicha mezon yuritiladi.

Soddaroq qilib aytiladigan bo'lsa, $w_i^7 \neq 0$ bo'lganda $w_i^7 \cup w_i^8$ termlar E to'plamning termlar kichik segmentidan va $w_i^9 \cup w_i^{10}$ termlar E to'plamning PS termi kichik segmentidan parallel qidiriladi. Qidirishda segmentlar joylashuv o'rinlar birinchi darajali muhim emas. Natija mavjud barcha segmentlar soniga nisbatan ularning qoplanish darajasiga bog'liq. Misol uchun matnning 5 ta pozitsiyadagi kalit so'zlarga formal to'plamning 7 ta segmentli qolipga 4 tasi javob bersin. Agar belgilangan mezon 70% bo'lsa, demak, murojaat qolipga tushdi hisoblanadi. Bu esa olib borilayotgan jarayonni natijasi sifatida qaraladi va E formal murojaat to'plamida ko'rsatilgan PS foydalanuvchiga taqdim etiladi.

Keyingi vazifada murojaat matnini tasniflash uchun statik va dinamik tanlanmalar ishlab chiqiladi. Uslubiyat ikki bosqichda amalga oshiriladi, ya'ni: SL va DL tanlanmalar asosida W^7 va W^8 hamda W^9 va W^{10} qatlamlar ustida matematik qayta ishlash.

1. SL va DL vaznlar to'plamidan $w_i^7 \neq 0$ shart asosida W^7 va W^8 vektor elementlari birlashtirilgan holda ($W^7 \cup W^8$) ularning elementlari indeksi bo'yicha sohalari kesimida ajratib olish (filterlash).

W^7 va W^8 vektor elementlarini birlashtirishda W^7 vektori o'zgarishsiz, W^8 vektordagi o'xshash so'zlar vazn koeffitsiyentlariga ko'paytirilgan holdagi yig'indisining o'rta arifmetigi hisoblanadi. Shuningdek, dinamik termlar vaznida sohalarga nisbatan ushbu W^7 va W^8 vektor termlarining umumiy yig'indiga nisbatan ulushi topiladi. Hisoblash uch bosqichda (1) formula yoki bunday murakkab hisoblashlar o'rniga natijasi yaqinroq bo'lgan (2) formula bilan ham amalga oshiriladi:

$$w_i^7 \neq 0 \rightarrow \left\{ \begin{array}{l} F7 = SL(w_i^7) + \frac{DL(w_i^7)}{\sum_{k=1}^m DL(w_k^7)} \\ F8 = \frac{1}{m_{j_l}} \left(\sum_{i=1}^{m_{j_l}} (SL(w_i^{8,j_l}) * t_{f_{ij}}) + \sum_{i=1}^{m_{j_l}} \left(\frac{DL(w_i^{8,j_l})}{\sum_{k=1}^m (DL(w_k^{8,j_l}))} * t_{f_{ij}} \right) \right) \\ FL = \frac{1}{4} \sum_{i=1}^{\bar{n}} (F7_{k,i} + F8_{k,i}), k = \overline{1, p\bar{n}}, FL \in [0,1] \end{array} \right\} (1)$$

$$w_i^7 \neq 0 \rightarrow \left\{ \begin{array}{l} FSL = SL(w_i^7) + \frac{1}{m_{j_l}} \sum_{i=1}^{m_{j_l}} (SL(w_i^{8,j_l}) * t_{f_{ij}}) \\ FDL = \frac{DL(w_i^7)}{\sum_{k=1}^m DL(w_k^7)} + \frac{1}{m_{j_l}} \sum_{i=1}^{m_{j_l}} \left(\frac{DL(w_i^{8,j_l})}{\sum_{k=1}^m (DL(w_k^{8,j_l}))} * t_{f_{ij}} \right) \\ FL_k = \frac{1}{4} \sum_{i=1}^{\bar{n}} (FSL_{k,i} + FDL_{k,i}), \overline{1, p\bar{n}}, FL \in [0,1] \end{array} \right\} (2)$$

2. **PT predmet sohalari termlarini aniqlash.** Bu bosqichda qisqartmalarning predmet sohasini aniqlash kabi natijaga erishiladi. Ma'lumki, $w_i^9 \neq 0$ shart bajarilgan vaqtda ushbu term predmet sohasi aniqlangan bo'ladi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, w_i^9 vektorda bir nechta predmet soha termlari bo'lishi mumkinligi uchun ularni $[0, 1]$ intervalga tushirish lozim. Buning uchun dastlab w_i^9 vektordan termlar predmet sohalari bo'yicha mavjudlik soni aniqlanadi. Keyin predmet sohalari bo'yicha eng kattasi topiladi. Demak, ushbu bosqich hisoblashlari (3) dagi ifoda orqali amalga oshiriladi:

$$w_i^9 \neq 0 \rightarrow \left\{ \begin{array}{l} PL_k = \frac{1}{2} \sum_{i=1}^{\bar{n}} \left(PT(w_i^9) + \frac{\sum_{k=1}^{y_{i1}} PTN(w_k^{10, J_i}) * ptf_{ij}}{y_{i1}} \right) \\ a = \max(PL_k), PL_k = \frac{a}{PL_k} \end{array} \right\} (3)$$

Keyingi vazifada statik va dinamik tanlanmalarga tayangan holda termlar va PSga oid termlar hamda ularning yaqinliklarini, ya'ni, $W^7 - W^{10}$ qatlam elementlarini matematik qayta ishlangan natijalarni umumlashtirish, ranjirish va natija foydalanuvchini qanoatlantirsa uni tasdiqlash usuli qaratiladi.

1. **Natijalarni umumlashtirish.** 7, 11 va 12 qadamlarda paydo bo'lgan NL (qisqartmalar), FL , PL bir o'lchamli vektorlarning elementlari soni bir xil bo'lib, bu o'lcham predmet sohalari soni pn ga teng. Natijaviy vektorlar mos vertikal indekslari bo'yicha berilgan mezon asosida umumlashtiriladi:

$$R_k = m_1 NL_k + m_2 FL_k + m_3 PL_k, m_1 + m_2 + m_3 = 100\%, k = \overline{1, np}.$$

bu yerda m_1, m_2, m_3 ekspertlar tomonidan berilgan vazniy koeffitsiyentlar.

2. **Ranjirish va natijani taqdim qilish.** Bunda belgilangan mezondan katta (odatda 70%) va eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan m ta (odatda 3 ta) element R_k vektor elementlari orasidan ajratib olinadi.

$$F(R) \rightarrow \max_{count m} (R |_{> 70})$$

Bu esa o'z o'rnida berilgan matn tegishli PS bo'lib hisoblanadi.

3. **Tasdiqlash.** Bu bosqichda DL dinamik termlar to'plami yangilanadi va E – formallashtirilgan murojaatlar to'plamiga yangi element qo'shiladi. Sharti $F(R)$ funktsiya qaytargan qiymatlar (predmet sohalari) foydalanuvchi (ekspert) tomonidan to'g'riligi, ya'ni haqiqatdan ham ushbu murojaat matni sohalari aniq bo'lganda tasdiqlanishi mumkin. Buni amalga oshirish quyidagicha bo'ladi:

a) Foydalanuvchi $F(R)$ dagi sohalarni tanlashi: $EL = F(R) |_{user\ select}$;

b) DL to'plamini yangilash. Faqat EL dagi PS bo'yicha W^7 va W^8 vektordagi elementlarga mos DL termlar ko'rsatkichi bittaga orttiriladi:

$$DL \leftarrow 1 + DL |_{W^7 \cup W^8}^{EL}$$


c) E to'plamiga W^{7-10} vektorning nol bo'lmagan elementlari formallashtirilgan holda qo'shiladi. Formallashtirish shunday amalga oshiriladiki, $w_i^7 \neq 0$ bo'lgan indeksdagi termlar bir segmentga birlashtirilib, segmentlar ketma-ketligi tuziladi. Keyin, E to'plamiga segmentlar ketma-ketligi bilan birga EL -PSning indeksi yoziladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

